Xususan, rossiyalik huquqshunos olim N. Fedorov prokuraturani tashkiliy jihatdan ijro etuvchi hokimiyat tarkibiga kiritishni taklif qiladi. U bu fikrini chet el mamlakatlarining aksariyatida prokuratura ijro hokimiyati organlari tizimiga kirishi bilan asoslaydi (Fedorov, 1992). Shu kabi yana bir guruh olimlar va amaliyotchilar prokuror vakolatlari maʼmuriy va imperativ xususiyatga ega ekanligi sababli uni ijro etuvchi hokimiyat sifatida taʼkidlagan (Bessarabov, 1999).

Olimlarning ikkinchi guruhi esa prokuratura mamlakat hududida qonunlarning bajarilishini, shuningdek quyi normativ-huquqiy hujjatlarning qonunga muvofiqligini tekshirganligi sababli uni qonun chiqaruvchi hokimiyat tarmogʻining oʻziga xos “qoʻshimchasi” sifatida talqin qiladi. Ularning fikriga koʻra, prokuratura qonun chiqaruvchi hokimiyat mexanizmlaridan biri hisoblanadi (Korenevskiy, 1994). Prokuror nazorati esa hokimiyatning alohida, maxsus turi boʻlib, u vakolatlarni bevosita qonun chiqaruvchidan olishi, ularni amalga oshirishi va faqat uning oldida hisobdor boʻlishi lozim (Vinogradov, 1997).

Masalan, rus olimlaridan biri V. Lomovskiy prokuratura qonun chiqaruvchi hokimiyat tarkibida boʻlishi kerak, deb hisoblaydi. Uning fikricha, bir tomondan, qonunlar qabul qilingach oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat ularning bajarilishiga befarq qarab turolmaydi. Shu sababli u qonuniylikning birligini taʼminlash funksiyasini saqlab qoladi va uni bevosita prokuratura organlari orqali amalga oshiradi. Ikkinchi tomondan, prokuratura oʻziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlatda “yolgʻiz” boʻla olmaydi, uni qoʻllab-quvvatlash zarur. Chunki u koʻpincha “eng kuchli subyektlar”ga qarshi turishiga toʻgʻri keladi.

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlarini bahsli deb hisoblaymiz. Chunki birinchi guruh olimlar prokuratura organlarining ijro hokimiyati tizimiga mansubligini taʼkidlar ekan, bunga asos sifatida ushbu organ faoliyatida maʼmuriy va imperativ munosabatlar mavjudligini koʻrsatadilar. Biroq ular prokuratura organlarining asosiy funksional vazifasi – umumiy huquqiy nazoratni amalga oshirishini yetarlicha inobatga olmaydilar. Prokuraturaning qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish faoliyati davomida u bevosita ijro hokimiyati tizimidagi maʼmuriy organlar hamda harbiy tuzilmalardagi qonun ijrosini ham nazorat qiladi. Shu bois mazkur organlarning faoliya-

ti ustidan nazoratni amalga oshirish prokuraturaning alohida, mustaqil institut sifatida davlat tizimida "yolg'iz" qolmasligi lozimligini ko'rsatadi, deb hisoblaymiz.

Ikkinchi guruh olimlarining ayrim fikrlariga qo'shilamiz. Chunki prokuraturaning qonun chiqaruvchi hokimiyat tizimiga kirishi uning mamlakatda parlament nazoratini to'liq amalga oshirishiga ko'maklashadi. Shu bilan birga, prokuratura umumiy huquqiy nazoratni amalga oshirish jarayonida ijro hokimiyati tizimidagi qonunlarning bir xilda ijro etilishi ustidan samarali nazorat amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi. Shuningdek, prokuraturaning o'z faoliyati yuzasidan parlament hamda Prezident oldida hisobdorligi ushbu organning qonun chiqaruvchi hokimiyat tizimida faoliyat yuritishi mantiqan hamda maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ikkinchi guruh olimlari prokuraturaning jinoiy ta'qibni amalga oshirish hamda odil sudlovga ko'maklashish vazifalariga yetarlicha to'xtalib o'tmagan. Fikrimizcha, turli huquqiy tizimlarda prokuraturaning eng asosiy vazifasi jinoiy ta'qibni amalga oshirish, tergov ustidan nazoratni yuritish hamda davlat ayblovini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Shu o'rinda, uchinchi qarash tarafdori V.N. Yeryominaning ta'kidlashicha, zamonaviy prokuratura hokimiyatning hech qaysi tarmog'iga kirmaydi. U hokimiyatlar bo'linishining shakllanayotgan tizimida zaruriy mexanizmni ifodalaydi hamda tiyib turish va muvozanat tizimining muhim elementi hisoblanadi. Prokuraturaning mustaqilligi uning qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish sohasida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur sharoitdir (Yakupov, 2017).

Bizning fikrimizcha, prokuraturaning hokimiyatning hech qaysi tarmog'iga kiritilmasligi davlat hokimiyatining bo'linishi hamda hokimiyat tizimida o'zaro tiyib turish va muvozanat tamoyiliga zid bo'lishi mumkin. Chunki prokuratura hech bir hokimiyat tarmog'iga mansub bo'lmaganda uning hisobdorligi va faoliyati ustidan samarali nazoratni ta'minlash, shuningdek ma'muriy bo'ysunuv tizimida tartib-intizomni saqlash masalalarida noaniqlik va boshboshdoqlik yuzaga kelishi ehtimoli ortadi, deb hisoblaymiz.

Tadqiqot davomida xorijiy davlatlarda prokuratura organlarining davlat hokimiyati tizimidagi o'rni hamda ushbu davlatlarning huquqiy tizimlari o'rganildi. Jami 99 ta davlat prokuraturasi tahlil qilindi.







**Rasm. Xorijiy davlatlar prokuraturalari tahlili**

Yuqoridagi statistik ma'lumotlarda ham prokuraturaning davlat hokimiyatidagi o'rni masalasida 3 ta katta guruhga ajaratilganligi ko'rishimiz mumkin.

Prokuratura organlarining davlat hokimiyati tizimida tutgan o'rniga oid mulohazalar yuzasidan A. Saidov shunday fikr bildiradi: prokuratura organlari davlat hokimiyati vakolatlari taqsimlanishining konstitutsiyaviy tizimida mustaqil tizimni, aniqrog'i, alohida hokimiyatni tashkil etadi. Shu bilan birga, bu

holat prokuratura organlarining davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlardan mutlaqo mustaqilligini hamda ular bilan hech qanday aloqaga ega emasligini anglatmaydi (Saidov, 2009). F. Otaxonovning fikriga koʻra, Konstitutsiyada prokuraturaga alohida bob bagʻishlanganligi davlat mexanizmida prokuraturaning maxsus konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi va uning yuqori darajadagi ijtimoiy oʻrni borligi hamda u boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlardan farqli ravishda konstitutsiyaviy organ ekanligini anglatadi (Otaxonov, 2022).

Prokuraturaning ijro etuvchi yoki sud hokimiyatiga boʻysundirilishi davlatda qaror topadigan oʻzaro tiyib turish va muvozanatlash tizimining buzilishiga olib kelishi mumkin va oqibatda qonunlarning xaspoʻshlanishi xavfini kuchaytiradi. Ma'lumki, ijro etuvchi organlar ham, sud organlari ham qonunlarni qoʻllaydi. Ushbu qonunlarning buzilishi ogʻir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Mustaqil prokuror nazoratisiz qonunlarning qat'iy amal qilinishiga umid bogʻlash qiyin. Basharti, prokuratura ijro etuvchi hokimiyatga boʻysundiriladigan boʻlsa, u holda ijro etuvchi organ (prokuratura timsolida) vakillik organlarining, shuningdek qaysidir ma'noda sud hokimiyatining ham qonunlarni bajarishi ustidan nazorat qiladigan organ boʻlib qoladi (Ibragimov, 2000).

M. Radjabovaning fikriga koʻra, prokuratura yuqoridagi ikkita hokimiyatdan farqli ravishda qonunlarning aniq va bir xilda qoʻllanishini nazorat qiluvchi davlat hokimiyat organi hisoblanadi (Radjabova, 2000).

Gʻ. Alimov Oʻzbekiston Konstitutsiyasi normalarini tahlil qilib, prokuratura Konstitutsiyada mustahkamlangan davlat hokimiyati tarmoqlarining birontasiga kirmaydi, degan xulosaga kelgan (Alimov, 2004).

Xuddi shunday, amaliyotchi huquqshunos I. Jasimov Oʻzbekiston prokuraturasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining birontasiga kirmaydigan, funksional jihatdan mustaqil boʻlgan davlat-huquqiy institut ekanligi haqidagi mulohazani ilgari surgan (Jasimov, 2004).

F. Nazarov, Oʻzbekiston Respublikasi davlat organlari tizimida prokuratura organlarini tutgan oʻrni va ahamiyatini belgilashga oid bir necha asosiy yoʻnalishlarga ajratadi. Birinchidan, prokuratura davlat nazorati organidir. Qonunlarning bajarilishi ustidan prokuror nazorati oʻziga xos faoliyat hisoblanadi. Ikkinchidan, prokuratura davlat institutlari tizimida alohida oʻrin tutadi. U Konstitutsiyada nazarda tutilgan hokimiyat tarmoqlari bilan funksional munosabatlarga ega. Prokuratura nazorati ularning birortasi bilan toʻliq bogʻliq boʻlmay, muvozanatlashtirib, optimal ishlashini ta'minlaydi. Uchinchidan, prokuratura va boshqa nazorat organlari bir-biri bilan hamkorlik qilibgina qolmay, balki oʻzaro oʻzboshimchaliklardan tiyilishiga majbur qiladigan zarur vositalar majmuyiga ega boʻlgan ikkita mustaqil tizim: nazorat va muvozanat tizimini ifodalaydi. Toʻrtinchidan, prokuraturaning qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari bilan oʻzaro aloqadorligi shundan iboratki, uning asosiy vazifasi qonunlarning bajarilishini nazorat qilish hamda butun qonun chiqaruvchi tizim barqarorligining kafolati hisoblanadi. Shuningdek, prokuratura va qonun chiqaruvchi hokimiyat oʻrtasidagi hamkorlikning yana bir muhim yoʻnalishi qonun ijodkorligidir. Beshinchidan, prokuratura nafaqat nazorat organi, balki jinoyat protsessining faol ishtirokchisi hamdir. Dastlabki tergovni olib borish, tergov va surishtiruv organlari ustidan nazorat, sudda davlat ayblovini quvvatlash, sud hujjatlarining qonuniyligi va adolatliligi yuzasidan yuqori instansiya sudlariga protest keltirish shular jumlasiga kiradi. Prokuratura oʻz vakolatlari va vazifalari doirasida huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi. Oltinchidan, prokuratura boshqa davlat organlari tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilishini kafolatlovchi davlatning

samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi (Nazarov, 2025).

A. Akbarov prokuratura faoliyatini davlatning huquqiy siyosatini amalga oshiruvchi organi hisoblab, uning asosiy vazifasi qonunlarning to'liq va bir xilda ijro etilishini nazorat qilish deb ta'kidlaydi. Unga ko'ra, prokuratura davlat hokimiyatining qonun ustuvorligini ta'minlashda va jamiyatda adolatni saqlashda markaziy rol o'ynaydi (Abduolimov, 2024).

X. Davletov esa prokuraturaning huquqiy nazorat organi sifatidagi o'rnini ta'kidlab, uning huquqni buzish holatlarini aniqlash hamda ularga qarshi chora ko'rishdagi muhimligini qayd etadi. Bu yo'nalishda prokuratura qonunbuzarliklarning oldini olish va davlat hokimiyatining qonuniyligini ta'minlashga katta hissa qo'shishini ta'kidlagan (Davletov, 2022).

U. Abduolimov ta'kidlashicha, prokuraturaning mustaqil faoliyat yuritishi uchun moddiy jihatdan davlat kafolati zarur. Ya'ni prokurorning mustaqilligi, shuningdek prokuratura organlari o'z vazifalarini to'g'ri bajarishi uchun yetarli miqdorda byudjet mablag'lari va barcha zarur resurslar bilan ta'minlanishi kerak. Bu borada amerikalik olim Angela Devis quyidagicha fikr bildiradi: "prokurorning byudjetga qaramligi uning mustaqilligiga jiddiy putur yetkazadi. Prokurorlar jinoyat ishini yuritish davomida byudjet mablag'laridan ehtiyoj doirasida cheklovsiz foydalana olishlari lozim" (Abduolimov, 2022).

G'arb davlatlarida prokuratura hokimiyatidan politsiya va sud hokimiyatini cheklash hamda ular o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash maqsadida foydalaniladi. Xususan, politsiya tomonidan hokimiyat vakolatlarining suiiste'mol qilinishining oldini olish, shuningdek sudlarning o'zboshimchalik bilan qarorlar qabul qilishi va sud hokimiyatining haddan tashqari kuchayib ketishining oldini olishda prokuratura tizimi samarali vosita sifatida qo'llaniladi (Wang, 2008).

Bugungi kunda ko'pgina mamlakatlarda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud vakolatlari o'rtasidagi siyosiy hamda texnik farqlar tobora murakkablashib bormoqda. Xuddi shunday, qaror qabul qilish, ijro etish va nazorat qilish asta-sekin tarmoq tuzilishiga o'tmoqda. Masalan, so'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab sud boshqaruvi paydo bo'ldi. Sud hokimiyatining tabiati, funksiyasi va ko'lami doimiy ravishda qayta shakllanmoqda. Shu bilan birga, sud hokimiyati qaror qabul qilish, ijro etish va nazorat qilish funksiyalariga ham ega bo'lib bormoqda (Hirschl, 2004).

Shubhasiz, har bir mamlakatda prokuratura vakolatlarini taqsimlash ma'lum qadriyat yo'nalishlari va institutsional maqsadlarga ega. Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya va Germaniya kabi mamlakatlarda prokuratura vakolati dastlab davlat prokuraturasi masalalarini hal qilish hamda politsiya va sudyalarning vakolatlarini tekshirish uchun tashkil etilgan. Shuning uchun prokuratura ma'muriy tizimga joylashtirilgan bo'lib, unga Adliya vaziri kabi ma'muriy mansabdor shaxslar rahbarlik qiladi, bu esa hokimiyatlarning bo'linishiga mos keladi.

Biroq Xitoy konstitutsiyaviy tizimiga ko'ra, prokuratura vakolatlarini huquqiy nazorat organlariga taqsimlash ko'proq maqsadga muvofiqdirligi (Zhou & Ye, 2015) belgilab qo'yilgan.

O'ylashimizcha, prokuraturaning davlat hokimiyati tizimidagi o'rni masalasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda ushbu mamlakatning qadriyatlariga bevosita bog'liq. Shu bilan birga, bugungi kunda qonunlarni ijrosini nazorat qilish masalasi tarmoq nazoratlari vakolatlariga o'tkazilmoqda. Biroq ushbu tendensiyani biroz bahsli deb hisoblaymiz. Chunki bir tizim ichida nazorat qiluvchi organning mavjud bo'lishi korrupsiyaviy omillarni keltirib chiqarishi mumkin deb hisoblaymiz.

**Xulosa**

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikr-mulohazalari hamda ilmiy manbalarni tahlil qi-

lish asosida quyidagi ilmiy asoslangan taklif va xulosalarni bayon qilamiz.

Birinchi xulosa shundan iboratki, prokuraturaning davlat hokimiyati tizimida, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyatidan qaysi biriga mansubligi masalasi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Ushbu masalaning dolzarbligi turli mamlakatlarning huquqiy tizimlaridagi farqlar, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar, aholi huquqiy madaniyatining o'ziga xosligi kabi obyektiv omillar bilan izohlanadi. Bu omillar prokuraturaning davlat hokimiyati tizimidagi o'rni masalasini hanuz ochiq qoldirmoqda.

Biroq, bizning fikrimizcha, prokuratura qonun chiqaruvchi hokimiyat tizimida faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq. Chunki qabul qilinayotgan qonunlar ijrosini ijro hokimiyati organlaridan ko'ra, aynan ijroni nazorat qiluvchi mustaqil organ tomonidan amalga oshirilishi samaraliroq bo'lishi mumkin.

Shuningdek, mazkur huquqiy nazorat mexanizmi orqali parlament tomonidan qabul qilingan hujjatlarning samarali ijrosi ta'minlanadi. Natijada aholining parlament hokimiyatiga bo'lgan ishonchi ortadi. Shu bilan birga, ijro hamda sud hokimiyatining qonunlar ijrosi ustidan amalga oshiradigan faoliyatiga xolis va shaffof baho berish imkoniyati ham yaratiladi. Bevosita O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatiga oid olimlarning ilmiy tadqiqotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, prokuraturaning huquqiy maqomi Konstitutsiya darajasida belgilanganligi ushbu organga keng vakolat va majburiyatlar yuklaydi. Shuningdek, prokuraturaning davlat hokimiyati tizimiga kirmasligi uning mustaqil faoliyat yuritishini ta'minlaydi hamda hokimiyat tarmoqlarini o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Prokuraturaga qonunchilik tashabbusi huquqining berilishi va ushbu huquqning Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi, prokuraturaga qonun ijrosi bilan bog'liq huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish yuzasidan o'z takliflarini qonunchilik tashabbusi orqali ilgari surish imkonini beradi. Uchinchidan, ayrim rivojlangan davlatlarda davlat hokimiyati tizimini uch tarmoqqa ajratish masalasi hanuzgacha bahsli bo'lib qolmoqda. Chunki bugungi raqamli davrda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlari o'rtasidagi farqlar tobora murakkablashib bormoqda. Xususan, sud nazorati vakolatlari kengaymoqda, shu bilan birga ijro va nazorat vakolatlarining turli tarmoq tizimlariga o'tishi kuzatilmoqda. Bu esa prokuraturaning davlat hokimiyati tizimidagi o'rni masalasi kelgusida ham dinamik tarzda rivojlanishda davom etishini ko'rsatadi, deb hisoblaymiz.

Umuman olganda, bugungi kunda mustaqil prokuror nazoratisiz qonunlarning qat'iy amal qilinishiga erishish qiyin. Chunki prokuratura ijro hokimiyati tizimidagi vazirlik va idoralar, shuningdek, harbiy tuzilmalar faoliyatida qonunlarning samarali ijrosini ta'minlash uchun mazkur tuzilmalarga nisbatan kam bo'lmagan huquqiy maqomga ega bo'lishi lozim, deb hisoblaymiz. Shuningdek, agar prokuratura ijro hokimiyati tizimiga kiritilsa, u holda ushbu organ ijro hokimiyatining funksional vazifalarini bajaruvchi tuzilmaga aylanib qoladi. Nazorat funksiyasining sud hokimiyati tizimiga o'tkazilishi esa davlat hokimiyati tizimidagi o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati prinsipining buzilishiga olib kelishi mumkin. Fikrimizcha, prokuratura qonun chiqaruvchi hokimiyat tizimida faoliyat yuritgan taqdirda hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati yanada samarali ta'minlanadi, deb hisoblaymiz.

## REFERENCES

1. Abduolimov, U. Kh. (2022). Prokuratura organlarining davlat mehanizmida tutgan oʻrni va faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan ayrim mulohazalar [Some reflections on improving the organizational and legal foundations of the activities and the role of the prosecutor's office in the state mechanism]. *Academic Research in Educational Sciences*, *3*(2), 62–72. https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-2-62-72

2. Abduolimov, U. Kh. (2024). *Prokuratura organlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish (Oʻzbekiston va Turkiya misolida) [Improving the organizational and legal foundations of the prosecutor's office (on the example of Uzbekistan and Turkiye)]* (Doctoral dissertation). Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan.

3. Alimov, G. (2004). *Pravovoy status i deyatelnost organov gosudarstvennoy vlasti v Respublike Uzbekistan [Legal status and activity of state authorities in the Republic of Uzbekistan].* Justice.

4. Bessarabov, V. G. (1999). Mesto prokuratury v gosudarstvennom mekhanizme sovremennoy Rossii [The place of the prosecutor's office in the state mechanism of modern Russia]. *Legality*, (10), 40–45.

5. Davletov, Kh. (2022). *Davlat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatining huquqiy asoslari [Legal foundations of the activities of state bodies and law enforcement agencies].* Justice.

6. Fedorov, N. V. (1992). O sudebnoy reforme v Rossii [On judicial reform in Russia]. *State and Law*, (6).

7. Hirschl, R. (2004). *Towards juristocracy: The origins and consequences of the new constitutionalism.* Harvard University Press.

8. Ibragimov, Z. S. (2000). *Prokuratura suverennogo Uzbekistana [The prosecutor's office of sovereign Uzbekistan].* Justice.

9. Jasimov, I. K. (2004). *Sud-huquq islohotlari va inson huquqlari himoyasidagi prokuraturaning bugungi kundagi oʻrni [The current role of the prosecutor's office in judicial reforms and the protection of human rights].* Justice.

10. Korenevskii, Y. V. (1994). Stanovlenie pravovogo gosudarstva v Rossiiskoi Federatsii i funktsii prokuratury [The formation of the rule of law in the Russian Federation and the functions of the prosecutor's office]. *State and Law*, (5), 3–34.

11. Nazarov, F. A. (2025). *Prokuratura organlari mustaqilligining ahamiyati: xalqaro standartlar va xorijiy tajribasi [The importance of independence of the prosecutor's office: International standards and foreign experience].* In *Huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasidagi global chaqiriqlar va tahdidlar: muammo va yechimlar [Global challenges and threats in the field of law enforcement: problems and solutions]* (pp. 373–375). Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan.

12. Otaxonov, F. Kh. (2022). Prokuraturaning konstitutsiyaviy maqomi va qonuniylikni ta'minlashdagi roli [The constitutional status of the prosecutor's office and its role in ensuring the rule of law]. *Bulletin of the Academy of the General Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan,* (1), 18–19.

13. President of the Republic of Uzbekistan. (2022, January 28). *Development strategy of New Uzbekistan for 2022–2026.* https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144

14. Radjabova, M. A. (2000). *Huquqiy davlatchilik sari [Towards the legal statehood].* Uzbekistan.

15. Republic of Uzbekistan. (2001, August 29). *On introducing amendments and additions to the Law of the Republic of Uzbekistan "On the Prosecutor's Office"*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/106197

16. Republic of Uzbekistan. (2023, May 1). *The Constitution of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/6445145

17. Saidov, A. Kh. (2009). *Istiqlol va prokuratura huquqiy davlat organlari tizimida [Independence and the prosecutor's office in the system of the rule of law bodies].* Right.

18. Vinogradov, O. A. (1997). Prokuratura v sisteme organov gosudarstvennoy vlasti [The prosecutor's office in the system of state authorities]. *Legality*, (4), 47–49.

19. Wang, Y. (2008). Research on several key theoretical issues of prosecutorial power: Returning to the starting point of prosecutorial theory research. *Tribunal of Political Science and Law*, (3).

20. Yakupov, Z. R. (2017). Rol prokuratury v mekhanizme gosudarstvennoy vlasti sovremennoy Rossii [The role of the prosecutor's office in the mechanism of state power in modern Russia]. In *Pravo: sovremennye tendentsii: materialy IV Mezhdunarodnoy nauchnoi konferentsii [Law: Modern trends: Proceedings of the IV International scientific conference]* (pp. 95–98). Novation.

21. Zhou, Y., & Ye, Z. (2015, October 15). *Analysis of several key issues of the constitutional prosecutorial system in China.* Supreme People's Procuratorate of the People's Republic of China. https://www.spp.gov.cn/llyj/201510/t20151015_105862.shtml

Kelib tushgan / Получено / Received: 06.03.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 15.04.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.04.2026

**DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.2./ODIF3938**
**UDC: 347.457:340.5(045)(575.1)**

# MIKROKREDITLASHNI TURLI HUQUQIY TIZIMLARDA TARTIBGA SOLISH MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI

**Shamshetov Sharafatdin Sarsenovich,**
Qoraqalpoq davlat universiteti
Fuqarolik va biznes huquqi kafedrasi dotsenti,
mustaqil izlanuvchi, yuridik fanlar nomzodi
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-3775-9939
e-mail: sharafatdinshamshetov@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada mikrokreditlash sohasining turli huquqiy modellari qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha doktrinal xulosalar ilgari suriladi. Tadqiqot markazida "mikrokreditlashni tartibga solish modeli" turadi. Mazkur model bozorga kirish (litsenziyalash, proporsional talablar), shartnoma standartlari, iste'molchilarni himoya qilish, kreditning to'liq qiymatni oshkor etish, narx cheklovlari hamda mas'uliyatli kreditlash va nazorat tizimining o'zaro bog'liq majmuasini ifodalaydi. Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy-huquqiy usul, yuridik-dogmatik tahlil va institutsional nazariya elementlarini birlashtirib, huquqiy rejimlarni subyektlar o'rtasida risklarni taqsimlovchi konstruksiyalar sifatida o'rganadi. Mikrokreditlashning tadbirkorlik va ijtimoiy (moliyaviy inklyuziya) funksiyalari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda halollik va huquqni suiiste'mol qilmaslik kabi imperativ tamoyillarning o'rni tahlil qilinadi. O'zbekiston qonunchiligi uchun de lege ferenda (kelajakdagi qonunchilik nuqtayi nazaridan) takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, ular kreditning to'liq qiymatini oshkor etish standartlarini kuchaytirish, bog'langan xizmatlarni majburlashga qarshi qoidalar o'rnatish, proporsional mas'uliyatli kreditlashni joriy etish, yashirin to'lovlarni taqiqlash bilan uyg'unlashgan narx cheklovlarini belgilash, shartnoma shartlarini standartlashtirish hamda ma'lumotni oshkor etish qoidalari buzilishining xususiy-huquqiy oqibatlarini mustahkamlashdan iborat.*

***Kalit so'zlar:*** *mikrokreditlash, mikromoliya tashkiloti, moliyaviy xizmat, axborotni oshkor etish, kreditning to'liq qiymati, foiz cheklovlari, mas'uliyatli kreditlash, to'lov qobiliyati, raqamlashtirish*

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МОДЕЛЕЙ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ МИКРОКРЕДИТОВАНИЯ В РАЗЛИЧНЫХ ПРАВОВЫХ СИСТЕМАХ

**Шамшетов Шарафатдин Сарсенович,**
кандидат юридических наук, доцент кафедры
«Гражданское и бизнес-право»,
самостоятельный соискатель
Каракалпакского государственного университета

***Аннотация.*** *В настоящей статье посредством сравнительно-правового анализа исследуются различные модели правового регулирования микрокредитования и*

# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 2-SON

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.6.2.